



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Ro'zaxon No'monova No'monjon qizi**

*Farg'onan Davlat Universiteti, o'qituvchisi.*

## “SARIQ DEVNI MINIB” ASARINING LEKSIK XUSUSIYATLARIGA BIR NAZAR

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarning tahlil usullari, “Sariq devni minib” asarida uchraydigan shakldosh so’zlar, shevaga xos so’zlar ,ularning leksik tahlili haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** leksema, til boyligi, dialektizm, omonimlar, leksik vositalar.

Badiiy adabiyot tilining boyligi uning lug‘at tarkibida turli xil leksemalarning miqdor jihatdan ko‘pligi hamda ma’no doirasining kengligi va torligiga qarab ham o‘lchanadi. Demak, badiiy adabiyot tili nafaqat adabiy til doirasidagi so‘zlar orqali shakllanar ekan, balki noadabiy leksik birliklar ta’sirida ham rivojlanib boradi. Noadabiy qatlama haqida gap borar ekan, avvalo, har bir ijodkor ko‘pgina hollarda adabiy me’yorni chetlab o‘tishga e’tiborni qaratadi. Shu sababdan, mashhur fransuz tilshunos olimi Sharl Balli va akademik V.V. Vinogradovlar badiiy adabiyot tilida adabiy me’yorga xos bo‘lmagan umumadabiy til me’yorlarini chetlab o‘tuvchi leksemalar ham mavjudligini ta’kidlaydi. K.S.Gorbachevichning ta’kidlashicha, yozuvchilar xayotni aniq tasvirlash maqsadida turli adabiy bo‘lmagan so‘z va so‘z shakllari va matn talab qtlgan ifodalardan foydalanish maqsadida adabiy me’yorni nchetlab o‘tadi.<sup>1</sup> Demak, yozuvchilar hayotiy voqealarni to‘g‘ri talqin etish uchun nafaqat adabiy me’yorga xos leksemalardan, balki noadabiy til unsurlaridan ham foydalanishga e’tiborni qaratdi. X. To’xtaboyev ham ko‘pgina o‘rinlarda adabiy tilni chetlab o‘tishga majbur bo‘lgan.Yozuvchi ijodida ana shunday noadabiy til

<sup>1</sup> Горбачевич К.С. Норма современного русского литературного языка. –М., 1978. –C.22.



vositalaridan biri dialektizmlardir. Binobarin, dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo‘lib, asosan jonli so‘zlashuv nutqiga xos leksemalar xisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e’tibor qaratiladi. Ko‘pgina tilshunoslikka oid tadqiqottlarda dialektizmlar umumxalq doirasidagi nutq turi sifatida qaralib kelingan va adabiy til me’yoriga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralangan holatlarda qo’llanilishi haqida fikrlar yuritilgan. Dialektizmlardan badiiy asarda turli xil maqsadlarda foydalaniлади. Ayniqsa, ularning uslubiy vazifa bajarib kelishi badiiy asar tilining boy va jozibador bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ular adabiy tilning funksional nutq doirasiga o‘tadi, o‘sha uslubga mos va emotsiyal bo‘yoq oladi.

Badiiy adabiyot tilini boyituvchi vositalar talaygina. Xususan, badiiy tilning boyib borishi va uning taraqqiy etib turishida og‘zaki nutqqa xos leksemalarning ahamiyati katta. Odatda og‘zaki nutq leksikasi badiiy asar tilining shunday bir ko‘rinishiki, u har qanday asarning badiiy-estetik ta’sirchanligini uysushtiradi. Ayni chog‘da, og‘zaki nutqqa xos lug‘aviy vositalar badiiy tilning ta’sirchan, jozibador bo‘lishini ham ta’minlaydi. Bu bevosita Xudoyberdi To’xtaboyevning ham ijod xarakteriga xos holatdir. Bunday holatlarning ayrimlari xususida o‘z fikrimizni “Saiq devni minib” asari misolida bildirmoqchimiz:

### **O’zi ishing bir ketga ketsa, hech o’ngarib bo’lmas ekan.**

Bu yerda tuzatmoq, o’nglamoq so‘zlarining Farg’ona shevasidagi variantidan foydalangan yozuvchi joy koloritini berish bilan bir qatorda bola nuqining ta’sirchanligini oshirmoqda. Chunki tuzatmoq, o’nglamoq so‘zlari biror xatolik (ozgina)ni to’g’rilash ma’nosida keladi. O’ngarmoq esa umuman teskari bo’lgan narsn o’ng qilmoq, ya’ni joyiga qaytarmoq ma’nosida kelmoqda. Bundan biz bolaning ishlari butunlay teskari tomonga yo’nalganligini bilamiz Yozuvchilar o‘z qahramonlarini o’zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli, tasvirlar ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadir. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o’zida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo’llanishi bilan bog’liqdir”. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos

birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. Yuqoridagi misoldakeltirilgan o’ngarmoq so‘zi leksik dialektizm hisoblanadi. Yoki shoir Juman Jo’ra qizining tilidan aytilgan:

#### **- Ichmayman, ada!**

Jumlesi joy koloritini berish uchun ishlatilgan. Voqealar Toshkent shahrida bo’lib o’tmoqda. Tohkent shevalarida otani ada deb atashadi, shu sababli bu leksik dialetizm hisoblanadi.

Bodom qori amakim ustozimning belidagi pulga sekin qo’l uzatgan edi, u kishi:

- Nari tur, betavfiq! – deb baqirib berdi.**
- Yo’q, taqsirim, o’z ulushimizni berasiz. Yong’oq qori pochcham og’zini kata ochib, ko’zlarini yumib:**



- **Apshu! – deya qattiq chuchkuriq yubordi, – ana sizlarga pul bo'lib olinglar!**

Bunda aksirmoq so'zi o'rniga Farg'ona vodiyisining ba'zi hududlarida qo'llaniladigan chuchkurnomoq so'zi qo'llangan. Bu bola tilidagi soflikni. reallikni ko'rsatgan. Bundan tashqari ynuqoridagi misolada og'zini kata ochib, ko'zini yumib jumlasidagi bir-biriga zid ma'noli so'zlarning yonma-yon ishlatilishi nutqning ifodaliligini oshirgan.

Leksik vositalardan biri sanalgan agnonim atamasi yunon tilidan olingen bo'lib, bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum degan ma'noni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki

antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish mumkin:

- **Mana bu siz qurishingiz kerak bo'lgan 75-uyning loyihasi, -- dedi devoriy gazeta chiqaradigan qalin qog'ozni qo'llimga berib, -- mana bu esa, azizim, genplan, qurilishi ob'ektingizni mana shularga qarab belgilab olaverasiz. Menga savolningiz yo'qmi, azizim?**

Bu yerda genplan so'zi agnonim hisoblanadi. Loyiha rejasi o'rniga genplan so'zining ishlatilishi muhit koloritini brish uchun qo'llangan. Bundan tashqari muhit, davr koloritini berish uchun asarda zavuch, kanikul, kassir, lager, uchastkovoy kabi so'zlardan ham foydalangan. Lekin bular agnonim hisoblanmaydi. Ular o'zlashma so'zlar, biroq adabiy tilda foydalanimaydi, ular umumxalq tilida ishlatiladi. Bu so'zlar barchaga tushunarli bo'lganligi sababli agnonim hisoblanmaydi.

**Shu payt sovuq osh tomog'imga tiqilib hiqichoq tutib qolsa bo'ladimi, bunaqasiga ilgari hech uchramagan edim. O'ziyam naq o'n besh minut nag'ma qildim.**

Yuqoridagi jumlada o'ziyam so'zi fonetik dialetizm, naq esa adabiy tilda rosa deb yuritiladi, bu leksik dialektizm hisoblanadi. Minut so'zi umumxalq tilida adabiy tildagi daqiqa so'zining muqobili. U o'zlashma so'z bo'lib, asarda davr koloritini berish uchun ishlatilgan, ham ta'sirchanligini oshirgan. **Nag'ma qildim** birikmasi esa bola nutqiga o'zgacha estetik bo'yoq bergen. Nag'ma qilmoq, aslida, qo'shiq aytmoq ma'nosida ishlatiladi. Uning hiqichoqqa nisbatan ishlatilishi esa nutqning ifodaliligini oshirgan.

**Hoy, ko'chadagi odamlar, javob bering. Hoy, shumshayib turgan azim daraxtlar, osmondag'i erkin uchgan qushchalar, yelib-yugurgan mashinalar...**

Shumshaymoq fe'li indamay turmoq, xafa bo'lib turmoq, ma'nosida qo'llanadi. Bu yerda u daraxtlarga nisbatan sifatlash qilib ishlatilmoqda. Bunda yozuvchi qahramonning kayfiyatini ifoalash uchun ishlatilgan. Inson kayfiyati yomonligida salbiy bo'yoq dor so'zlarni ishlatadi. Shumshaymoq fe'li ana shunday salbiy bo'yoqqa ega. Hoshimjonning kayfiyati shu darajada yomonki, tinch tungan daraxtlarni-da tinch qo'yaydi.

- **Voy sho'rim! Hoy, qo'shni, yugururing, iskara pomsh chaqiring! Bolam bechora-ey! – der edi tinmay novcha kampir, -- kimning o'g'lisan o'zi?**



Iskara pomsh (skoraya pomosh ya’ni tez yordam) birikmasi kampir tilidan aytilgani uchun shunday talaffuzqilingan, chunki o’zlashgan so’zlarni Yoshi kata odamlar shunday buzib talaffuz qiladilar. Bu birikmaning shunday ishlatalishi real hayotni aks ettirgan.

### **Tamom, hali aytganimda, obro’ ikki pul bo’ldi.**

Bu yerda ikki pul bo’lmoq iborasi tushmoq ma’nosida qo’llangan. Ammo obro’ tushmoq bilan o’bro’ning ikki pul bo’lishi o’rtasida ma’no bir xil emas. Ikkinci jumlaning ma’nosи va ta’sirchanligi ancha kuchli. Ikki pul bo’lmoq umuman qolmaganlik, hech narsaga arzmaslikni bildiradi.

### **Ko’z yumib-ochguncha avval molxonani, so’ngra cho’chqaxonani yog’ tushsa yalagudek qilib tozalab tashladik.**

Yuqoridagi gapda ikkita ibora qo’llangan. “Ko’z yumib ochguncha” iborasi bir zumda degan ma’noni bildiradi. “Yog’ tushsa yalagudek” iborasi esa o’ta darajada tozalikni bildiradi. Bu ikki ibora bola nutqidagi mubolag’aviylikni oshirgan.

Tabiiyki, o’quvchidan badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsiyal-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan lekslk birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun yuqorida ko’rib o’tganimizdan tashqari, badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko’p ma’noli, tarixiy va arxaik so’zlar va boshqalar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Ushbu kichik ilmiy tadqiqotimizda yozuvchi tilning ayrim imkoniyatlaridan qay darajada mohirlik bilan foydalanganligi to‘g’risida so’zimizni davom ettiramiz.

Ma’lumki, ma’nodosh so’zlar tilning boyligini, ta’sirchanligini belgilovchi muhim birliklardan sanaladi. Sinonimik qatordan o’rin olgan har bir so’z nutqda o’ziga xos uslubiy vazifaga ega. So’zlovchi tashqi nutqqa tayyorlanar ekan, o’z ichki nutqida vaziyat elementlarini ifodalovchi ma’nodosh so’zlar qatorini terib chiqadi. Uning so’z tanlash darajasi lug‘at boyligi, bilimi, nutqiy malakasi asosida belgilanadi. Badiiy matndagi ma’nodosh so’zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so’zdan ifodalananayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo’lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg’un holda qo’llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma’nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya’ni:

- 1) leksik ma’nodoshlik; 2) frazeologik ma’nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma’nodoshlik.

X.To’xtaboyevning biz tadqiq qilayotgan asarida yuqoridagilardan deyarli barchasini ham uchratishimiz mumkin. Bbundan tashqari ma’nodoshlikning kontektsual dgan turi ham borki, undan faqat kata mahoratli yozuvchilargina foydalana oladilar. Bu turdan foydalanuvchi yozuvchilarining ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo’lgan, tayyor ma’nodosh so’zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko’ra ma’nodosh bo’lmagan so’zlarni ham shunday qo’llaydilarki, bu so’zlar ham matnda xuddi ma’nodosh so’zlar kabi idrok etiladi.



Masalan: ...**Farovon hayotda qaynab-to'libsiz, xazina bo'libsiz, go'zal bo'libsiz.**

Asarning “Qofiya bozori qaydadir” nomli V bobidagi shoirlar tomonidan dalalaga nisbatan aytilgan bu ta'rifda ham ko'rganimizdek, aslida sinonim bo'limgan so'zlar bir ma'noviy qatorga birlashtirilmoqda. Bu esa yozuvchi ko'zlagan badiiy maqsadni amalga oshishiga sabab bo'lmoqda.

Yoki frazeologik ma'nodoshlikka misol qilib, mana buni olsak bo'ladi:

**Alamidman kechasi qofiya, vazn, turog'i bo'lmasa ham she'rni shunaqangi ko'p yozdimki, ko'rsangiz “yuragingiz vahm oladi”.**

Bu yerda yozuvchi aslida “qo'rmoq” ma'nosini beruvchi “**yuragingiz vahm oladi**” iborasining boshqa ma'nosini keltirib, badiiy kashfiyat yaratadi. Asarda bu ibora “hayratda qolmoq”, “lol bo'lmoq” ma'nosida kelmoqda.

Yozuvchining boshqalarda uchramaydigan o'ziga xosligi shundaki, u so'zlarning yangi ma'nolarin va yangi ma'no bildiruvchi so'zlarni o'zi yarata oladi. Masalan, uning asarning juda ko'p yerida qo'llagan “pok-pokiza” so'ziga e'tibor beraylik. Aslida “toza” ma'nosini beruvchi bu so'z takror holatda ma'noni yanada bo'rttirib ifodalamoqda. Yana ta'kidlash kerakki, bu so'z boshqa o'rinda boshqa ma'no ottenkalarini ham yuzaga chiqargan. Misol uchun:

**Ish stolining ustida turgan bir taqsimcha shokoladini pok-pokiza tushirdim.**

Agar bu yerda yozuvchi “toza” so'zini qo'llaganida, asar bu darajada ta'sirli, jonli va qizqarli chiqmagan bo'lar edi.

X.To'xtaboyevning mahorat sohibi ekanligi shundaki, u tilimizdagи hamma uchun tanish bo'llgan so'zlardangina foydalanib qolmaydi, balki o'zi ham yaratadi.

Mana bir misol:

**Dev bir uf tortib oldi-da, lo'killaganicha, yugurib ketdi. Lekin o'ziyam rosa mazza qildim-da. Qasam ichib aytamanki, umrimda bunaqangi rohatijon bo'limgan.**

Parchadagi “rohatijon” so'zi alohida tahlil talab qiladi. Bu so'z “huzur”, “rohat” ma'nolarini bildirib, qahramon his-tuyg'ularini ifodalab keladi. Yozuvchimiz esa unga “jon” so'zini qo'shish orqali ma'noning kuchayishiga zamin yaratganligini ko'ramiz.

Yoki mana bu misolga qarang:

**Shuning uchun popusingni sal silab qo'ydim-da, ukajon.** Bundagi iboraning ham asl ko'rinishi boshqacharoq, ya'ni “**popukni pasaytirmoq**” holatida. Bilamizki, bu iboraning ma'nosи “o'z joyiga o'tqazib qo'yish” mazmunini ifodalaydi. Asarda esa bu ma'nodan tashqari, qo'shimcha ma'noni ham izohlab kelmoqda. Huddi shu usullar ham yozuvchi mahoratini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Frazeologik ma'nodoshlikdan ham asarda ko'plab foydalanilgan:

**Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq**

kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi

“Sariq devni minib“ assarida yozuvchi shakldosh so'zlardan ham unumli foydalanib, asar tilining o'ziga xosligini ta'minlagan.



Bilamizki, tilimizda tovush (yozuvda grafik) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi:

- Omoleksema,
- omograf
- omofonlar

«Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi». Masalan, qovoq-I (inson a'zosi) –qovoq-II (o'simlik nomi). Omograflar esa, harfiy jihatdan bir xil bo'lib, talaffuzi har xil bo'ladi: tom-I (uyning tomi) – tom-II (jild), atlas-I (ipakdan tayyorlangan mato turi) - atlas-I (xarita). Omonimlarning huddi shu turi biz o'rganayotgan asarda ko'proq qo'llangan.

Masalan:

**Bu yerlar menga yet bo'lsa ham, odamlari qishlog'imni esga solardi.**

Bu jumlada “yet” so'zi omonimlik vazifasini bajarib kelgan. Bu so'z shakldoshlik jihatidan ikki ma'noni ifodalaydi. 1. sifat so'z turkumi bo'lib, “begona” ma'nosida keladi. 2. fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, buyruq-istik ma'nosini ifodalaydi.

**Shunday qilib, biz qori pochcham bilan apoq-chapoq yashab, maza qilib yurgan edik. Hali aytganimdek, u kishini fosh qilishni unutayozgan edim. Bir voqeа sabab bo'ldi-yu, men yana to'nmni teskari kiyib oldim.**

Yuqoridagi gapda to'nini teskari kiyib olmoq iboasi I shaxs tilidan aytilgan. Aslida, bu ibora III shaxsga nisbatan biror narsaga ko'nmay qo'yganda “Falonchi to'nini teskari kiyib oldi” – tarzida ishlatilar edi. Bunda u fikridan qaytgan ma'nosini beradi. I shaxs tilidan aytilganda esa ta'sirchanlik yanada ortadi.

**O'zim ham mana shunaqa ishlarga suyagi yo'q bolamanda.**

Bu yerda ham iboraning I shaxs tilidan aytilganligi ta'sirchanlikni yanada oshirgan. Suyagi yo'q iborasi biror narsaga tezda og'ib ketish ma'nosini bildiradi. Insonni ushlab turgan narsa suyak agar u yo'q bo'lsa inson haam duch kelgan tomonga og'ib ketardi. Shuning uchun suyagi yo'q ibora sifaatida qo'llanadi

**Yopirilib ichkari hovliga kirgan edk, chindan ham hech kim yo'q, bog' tomonga chiqadigan eshik lang ochiq.**

**- Oldimizga poxol solib ketibdi-yu! – deb baqirdi qasos olgani kelgan azamat yigitlardan biri.**

Yuqoridagi gapda iboraning qo'llanishi nutqning ta'sirchanligini oshirgan. Yongoq qori kiyimini almashtirib chiqish bahonasida qochib qolgaanini bilgan qasoskorlarning biri aldab ketibdi deyish o'rniga oldimizga poxil solib ketibdi deyishi ta'sirchanlikni oshirgan.

- Chuchvarani xom sanabsiz, mulla Danak!
- O'zlari xom sanabdilar, mulla Bodom.

Chuchvarani xom sanamoq iborasi chala o'yldamoq, kalta o'yldamoq ma'nosida qo'llaniladi. Bundan tashqari yozuvchi paronim so'zlardan ham foydalanshi, shu orqali asar tili go'zalligini yanada oshirishi mumkin. Badiiy adabiyotda o'xshash so'z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma'naviy hamda lisoniy saviyasini



ko'rsatish uchun ham ishlataladi. Xususan, asarni o'qir ekanmiz, Hoshimjonning sarguzashtlari tavсifini keltirishda X.To'xtaboyev bu usuldan oqilona foydalanganini ko'ramiz. Bundan foydalanish asarning hajviyligini yanada kuchaytirgan.

**Aylanib yurib to'rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo'lim boshlig'i O'rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to'g'risidadir qo'lllarini paxsa qilishib bahslashmoqda edi. Meni ko'rishi bilan bo'lim boshlig'i:**

**-O'rtoq agronom sizdan o'ir ittimosim bor,-deb qoldi.**

**Agar malol kelmasa, mana bu Rahimonga, uning a'zolariga kompost tushunmas ekan.**

**– Marhamat, - dedim-da, u yoq – bu yoqqa qarab olgach, leksiya o'qishga tushib ketdim:**

**-O'rtoqlar, kompot juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi.**

Mevaiarning xili qanchalik ko'p bo'lса. u shuncha shirin bo'ladi. Bizning Farg'ona tomonlarda kompotni o'rik shaftoliqoqi va olchaning qurug'idan tayyorlashadi. Xullas, kompot ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. Bu parchadagi paronamaziyada ikkita o'xshash so'zning qahramon tarafidan farqlanmasligi, ya'ni ikkita alohida so'z ma'nolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan.

Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodalilagini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni **ko'p ma'noli so'zlarni** o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Asarda bunday so'zlarga ko'plab duch kelishimiz mumkin. Masalan:

**--- Buvijon,-- dedim sekin ko'rпамни устимга тортib,--bugundan boshlab namoz o'qimayman.**

**--- Nega endi o'qimas ekansan?**

**--- Namoz o'qiganlar ... do'zaxda kuyar emish...**

**--- Bu gap qaysi payg'ambardan chiqdi?--- achchig'i chiqib so'radi buvijonim.**

**--- Hoshim degan payg'ambardan chiqdi.**

**--- Nima-nima! Yana bir gapir!**

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari matnini o'zbek tili tahlil usullaridan foydalanib o'rganib chiqilsa, tilimiz go'zalligi va boyliliga yana bir bora amin bo'lishimiz mumkin. Yuqorida asarning leksik xususiyatlarini o'rganishning o'zi mavzuning hozirgi kun uchun yangi va davomli ekanligini ko'rsatib turibdi.

**Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati**

1. S.Muhamedova, M.Saparniyozova. "Matn lingvitikasi". 2011. Toshkent.
2. M. Yo'ldoshev " Badiiy matnning lisoniy tahlili" 2008. Toshkent.
3. X.To'xtaboyev "Sariq devni minib". 2005. Toshkent.
4. No'monova Ro'zaxon No'monjon qizi. "Shaytanat asaridagi ayrim birliklarning psixolingvistik tahlili.
5. No'moniva Ruzaxon No'monjon qizi, Muqaddas Abdurahimovna Tojiboyeva.. "THE EXPRESSION OF THE IDEA OF ENLIGHTENMENT IN THE POETRY OF HAMZA HAKIMZODA"//ACADEMICIA:An International multidisciplinary Research Journal.Vol.10,Issue 11, November 2020. 1272-1276
6. No'monova Ro'zaxon No'monjon qizi, Muqaddas Abdurahimovna Tojiboyeva. "Musamat and his special place in Hamza Hakimzoda's poetry". INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOVERIES AND INNOVATIONS IN APPLIED SCIENCES (IJDIAS) Volume 1. No 4(sep 2021) 63-67